# Jinsiy va o'zaro shaxsiy tajovuz qurbonlariga Muhojirlik va Viza bo'yicha Ma'lumot

Xorijlik talabalar va ilmiy ish olib boruvchilar muhojirlik va viza maqomi to'g'risida muhojirlik masalalari bo'yicha huqushunosga murojat qilishi tavsiya etiladi. Ushbu hujjat qonnunning ayrim jihatlari bo'yicha manba sifatida xizmat qiladi va shu o'rinda yuridik maslahat bo'la olmaydi.

**Men zo'ravonlik qurboni bo’lganman, mening muhojirlik maqomim kampus hududidagi resurslardan foydalanish imkoniyatimga ta'sir etadimi?**

Yo'q. Qonun bo'yicha, jinsiy yoki shaxsiyatga teguvchi zo'ravonlik qurboni yoki ulardan jabr ko'rgan talabalar va xodimlar muhojirlik va viza maqomidan qat'i nazar 1972 yil Ta'limga O'zgartirishlarning (IX sarlavha) IX sarlahvasi va Ayollarga Nisbatan Zo'ravonlikka Qarshi Kurashish qonunida (VAWA) belgilangan huquqlarga bir teng egadirlar.

Kampus hududida tibbiy yordam va maslahat xonalari hamda bo'sh joylar bo'yicha ma'lumotni quyidagi manzil bo'yicha topishingiz mumkin: https://www.tntech.edu/healthservices/

Talabalarning odob-axloq bo'yicha ma'lumotni quyidagi manzilda topishingiz mumkin: https://www.tntech.edu/policies/

Kollej jinoyat haqida xabar berganingiz uchun sizga nisbatan jazo qo'llamaydi va munosabati o'zgarmaydi.

**Men qonuniy yoki noqonuniy muhojir sifatida jinoiy ish qo'zg'ata olamanmi?**

Ha. Siz jinsiy zo'ravonlik, uydagi zo'ravonlik, uchrashuvdagi tajovuz va ta'qib izohlarini shtatingiz Yillik Xavfsizlik Hisobotida topishingiz mumkin: https://www.tntech.edu/police/annual-security-report

Jinoiy ish qo'zg'atish bo'yicha alohida savollaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin.

Zeva Edmondson, Title IX Office
1 William L. Jones Dr., Derryberry Hall 256, Cookeville, TN 38505
931-372-3112
https://www.tntech.edu/titleIX
zedmondson@tntech.edu

**Jinyoat qurbonlari uchun alohida viza va muhojirlik maqomlar mavjudmi?**

Ha. Jinsiy zo’ravonlik, uydagi zo'ravonlik, uchrashuvdagi tajovuz va ta'qib qurbonlari uchun alohida viza variantlari mavjud, shu jumladan U va T vizalari. Har biri bo'yicha muhojirlar ishlari bo'yicha huquqshunos bilan maslahatlashing.

| U Viza | T Viza |
|---|---|
| Ayrim jinoiy faoliyat, shu jumladan jinsiy tajovuz hollari, uydagi zo'ravonlik, zo'rlash, tajovuz yoki boshqa o'xshash jinoyatlar natijasida o'ta og'ir jismoniy yoki ma'naviy zarar ko'rgan qurbonlarga taqdim qilinadi<br>- Qurbon/da'vogar aniq jinoiy faoliyat qurboni va tergov ishlariga va/yoki jinoyatning ayblov jarayonlariga yordam berishga munosib topilgan bo'lishi kerak<br>- Odatda to'rt yilga taqdim qilinadi<br>- Qo'shimcha ma'lumot uchun muhojirlar masalalari bo'yicha huquqshunos bilan bog'laning va quyidagi manzil bilan tanishing: | Odam savdosi qurbonlariga uchun<br>- Tergov ishlarida hamkorlik yoki odam savdosi qonunbuzarchiliklarini ta'qib qilish ishlari bo'yicha (hamkorlik qilish uchun jismoniy yoki ruhiy jarohatlar xalaqit bermagan taqdirda) huquqni muhofaza qilish organlaridan tegishli talabnoma mavjud bo'lishi va qurbon/da'vogar Amerika Qo'shma Shtatlaridan olib ketilsa o'ta jiddiy xavf ostida qolib ketishi isbotlangan bo'lishi kerak<br>- Odatda to'rt yilga taqdim qilinadi<br>- Qo'shimcha ma'lumot uchun muhojirlar masalalari bo'yicha huquqshunos bilan bog'laning va quyidagi manzil bilan tanishing: |
| http://www.uscis.gov/humanitarian/victims-human-trafficking-other-crimes/victims-criminal-activity-u-nonimmigrant-status/victims-criminal-activity-u-nonimmigrant-status | http://www.uscis.gov/humanitarian/victims-human-trafficking-other-crimes/victims-human-trafficking-t-nonimmigrant-status |

**Kampus hududida menga qo'shimcha ma'lumot bera oladigan boshqarma bormi?**

,
, ,

Xalqaro Talabalar va Ilmiy Ish Olib Boruvchilar Idorasi sizga muhojirlik masalalari bo'yicha foydali ma’lumotlar berishi mumkin. Viza maqomini o'zgartirish yoki odatiy F-1 va J-1 talabalar vizasi doirasidan tashqari yuridik maslahatlar yoki idora xomiyligi asosidagi mehnat vizasi bo'yicha muhojirlar masalalari bo'yicha malakali huqushunos bilan maslahatlashing.

| Viza variantlari |
|---|

| F-1 va J-1 maqomli vizaga ega talabalar uchun: | H-1B, O-1, E-3, yoki TN ishchilari uchun: |
|---|---|
| • Litsenziyaga ega tibbiy doktor, osteopatiya doktori yoki litsenziyaga ega klinika ruxshunosi tomonidan tasdiqlovchi tibbiy hujjatga asosan o'quv kurslari soni kamaytirilishi imkoniyati<br>• Akademik dasturingizni to'xtatish imkoniyati va oqibati<br>• Talaba akademik dasturni to'xtatishni tanlagan taqdirda akademik dasturga kelajakda qaytish bo'yicha ma'lumot,<br>• Turmush o'rtog'ingizni olib kelish imkoniyatlari va uning ta’siri<br>• Viza maqomini almashtirish bo'yicha umumiy ma'lumot<br>• U va T vizalar bo'yicha umumiiy ma’lumotlar. (Muhojirlar masalalalari bo'yicha malakali huquqshunosga yo’llanma)<br>• Malakali huquqshunosga yo’llanma | • Mehnat ta'tili olish imkoniyati va uning muhojirlik maqomingizga ta'siri<br>• Turmush o'rtog'ingizni olib kelish uchun imkoniyat va uning ta’siri<br>• Viza maqomini o'zgartirish uchun umumiy ma'lumot. Muhojirlik masalalari bo'yicha malakali huquqshunosga yo’llanma<br>• U va T vizalari bo'yicha umumiy ma'lumotar (Muhojirlik masalalari bo'yicha malakali huquqshunosga yo’llanma)<br>• Muhojirlik masalalari bo'yicha malakali huquqshunosga yo’llanma<br>• AQSh doimiy rezidentlik maqomi ko'rib chiqilayotgan da'vogarlar (grin kartalari hali tasdiqlanmagan)<br>• Ishdan ketishingiz idora homiyligi asosidagi doimiy rezidentlik maqomingizning ko'rib chiqilishiga ta'siri<br>• Malakali huquqshunosga yo’llanma |

**Muhojirlar ishlari bo'yicha yurist kim va u nima ish qiladi?**

Muhojirlik ishlari bo'yicha yuristlar muhojirlik qonunchiligi bo'yicha tegishli litsenziyaga ega huquqshunoslardir. Ular mijozning advokati vazifasini bajaradi va muhojirlar agentliklarida, muhojirlar ishlari bo'yicha sudida vakil sifatida qatnashadi hamda muhojirlar belgilangan yordam olish uchun mijoz vakili sifatida arizalar topshiradilar. Yurist umumiy maslahat berishi va muhojirlar masalalari bo'yicha muzokaralar olib borishi mumkin. Boshqa barcha yuristlar kabi, muhojirlar ishlari bo'yicha yuristlar professional axloqiy va qonuniy talablarga javob beradilar, va shu o'rinda mijoz bilan muhokamalarini sir tutishni ta'milaydilar.

**Muhojirlar masalalari bo'yicha mahalliy huquqshunoslarni qayerdan topishim mumkin?**

AQSh Fuqarolik va Muhojirlar Xizmati (U.S. Citizenship and Immigration Services - USCIS) va Ichki Xavfsizlik Departamenti (Department of Homeland Security - DHS) byurosining quyida keltirilgan web-sahifalarida tekin yoki arzon huquqshunos vakillar topishingiz mumkin.

USCIS: Tumaningiz web-sahifasida yordamli ma'lumotlar bilan tanishing

USCIS: Yuridik xizmatlar web-sahifasini toping

Muhojirlik Appelyatsiyalari Kengashi (Board of Immigration Appeals - BIA) shtatingizda muhojrilik masalalari bo'yicha tekinga yoki arzonga xizmat ko'rsatuvchi huquqshunoslar ro'yhatini olib boradi.

Amerika Muhojirlar Masalalari bo'yicha Yuristlar Uyushmasi (American Immigration Lawyers Association - AILA) talaba yoki ilmiy ish olib boruvchiga muhojirlik masalalari bo'yicha huqushunos bilan bog'lanishga yordam beruvchi onlayn Muhojirlar Ishlari bo'yi

Amerika ko'ngillilar uyushmasi (American Bar Association - ABA) ham shtatlar bo'yicha yuridik xizmatlar topishga ko'mak beruvchi ma'lumotlarni e'lon qilib boradi.